

**Milliy qadriyatlar va ularning millat ma'naviyatidagi o'rni" shiori ostida Toshkent
Xalqaro Vestminster Universitetida tashkil etilgan "Movie Night" tadbiri
BAYONNOMASI**

2025 yil 10.10

TXVU

2025-yil 10- oktabr kuni Toshkent Xalqaro Vestminster Universitetining faol talabalari - "The Intern" klubi tashabbusi bilan talabalar uchun madaniy-hordiq tadbiri bo'lgan **"Movie Night"** (Kino kechasi) tashkil etildi. Tadbirning maqsadi – talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ular o'rtasida do'stona va ijodiy muhit yaratish, ingliz tilidagi kino orqali til ko'nikmalarini mustahkamlash va muhim ijtimoiy mavzular yuzasidan ochiq muhokama maydonini yaratishdan iborat bo'ldi.



Tadbir universitet hududidagi ATB zalida bo'lib o'tdi va unda 63 nafardan ortiq talaba qatnashdi. "The Intern" klubi tomonidan tanlangan film orqali 1 ishtirokidagi CHARITY MOVIE NIGHT talabalar tomonidan qiziqish bilan kutib olindi. Kino namoyishidan so'ng:

Filmda ko'tarilgan mavzular yuzasidan erkin fikr almashinuvi tashkil etildi. Ishtirokchilar o'z fikrlarini ingliz tilida ifodalashga harakat qilishdi, bu esa ularning til ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadbir davomida talabalarga yengil shirinliklar, ichimliklar va qulay muhit taqdim etildi. Kino kechasi ko'ngilochar bo'lishi bilan birga, talabalarning tafakkurini, tilini va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbus sifatida e'tirof etildi.



Talabalar bilan o‘tkazilgan **“Kino kechasi”** tadbiri ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, madaniy saviyasini oshirish va jamoada do‘stona muhitni mustahkamlashga xizmat qildi. Tadbir davomida talabalar milliy va xorijiy filmlar orqali hayotiy saboqlar oldilar, estetik did va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdilar. Shuningdek, kino san’ati orqali yoshlarning ma’naviy olamini boyitish, ularda vatanparvarlik, mehr-oqibat va ezgu fazilatlarini targ‘ib etish imkoniyati yaratildi. Umuman olganda, **“Kino kechasi”** tadbiri talabalarning ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlash, ularni bir jamoa sifatida birlashtirish hamda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyada samarali vosita bo‘ldi. **Movie Night**” ishtirokchilarda yuqori taassurot qoldirdi va bunday madaniy tadbirlarni muntazam tashkil etish takliflari bildirildi.

**TXVU Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy
ishlar bo’yicha birinchi Prorektori:**

N. Kadirov

Universitet katta tyutori:

F.Ismagilova